

O'SMIRLIK YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA EGOISTLIKNING NAMOYON BO'LISHI

Murtazayeva Sayyora Sanoqulovna

Navoiy viloyati Xatirchi tumani

34-maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'smirlik yoshidagi o'quvchilarda egoizmning (o'z manfaatini ustun qo'yish) namoyon bo'lishi, uning psixologik sabablari hamda ijtimoiy muhitga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, egoistik xulqni kamaytirish va ijobiy shaxsiy fazilatlarni shakllantirish usullari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, egoizm, shaxsiyat, psixologiya, muloqot, ijtimoiy muhit, tarbiya, emotsional rivojlanish.

KIRISH

O'smirlik davri shaxs rivojlanishining eng murakkab bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda o'quvchilarda o'zini anglash, mustaqillikka intilish va shaxsiy "men" obrazining shakllanishi kuchayadi. Shu jarayonda ayrim hollarda egoistik xulq-atvor ham namoyon bo'lishi mumkin.

Egoizm — bu shaxsning o'z manfaatlarini boshqalardan ustun qo'yishi va ko'proq o'z ehtiyojlarini qondirishga intilishidir. O'smirlik davrida bu holat tabiiy ravishda biroz kuchayishi mumkin, chunki o'quvchi o'z shaxsini himoya qilish va mustaqil qaror qabul qilishga harakat qiladi. Psixologik jihatdan egoizmning shakllanishiga bir necha omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularga oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit, e'tibor yetishmasligi yoki aksincha haddan tashqari erkalatish kiradi.

Oilada bola doimiy ravishda faqat o'z istaklarini ustun qo'yishga o'rgatilsa, u jamoadagi muvozanatni tushunmasligi mumkin. Shuningdek, e'tibor yetishmasligi ham

o‘smirni faqat o‘z manfaatini o‘ylashga undaydi. Maktab muhitida tengdoshlar bilan munosabat ham muhim rol o‘ynaydi. Jamoaviy ishlarda ishtirok etish, hamkorlik va mas‘uliyat egoistik xulqni kamaytirishga yordam beradi.

Psixologik jihatdan o‘smirlarda empatiya, ya’ni boshqalarning hissiyotini tushunish qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Bu egoizmni kamaytirishda samarali vosita hisoblanadi. O‘qituvchi va psixologlar tomonidan olib boriladigan tarbiyaviy suhbatlar, treninglar va guruhiy mashg‘ulotlar ijobiy natija beradi. Bu jarayonda o‘smirlar hamkorlik va o‘zaro hurmatni o‘rganadilar.

Shuningdek, sport, ijodiy faoliyat va jamoaviy loyihalar o‘smirlarning ijtimoiy faolligini oshiradi va egoistik xulqni kamaytiradi. Bu ularni jamoa bilan ishlashga o‘rgatadi.

Oila jamiyat hayotini olg‘a suruvchi, uning yanada yuksak bosqichlarga ko‘tarib, ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodlarni tarbiyalab etishtiruvchi, kamol toptirish uchun mas‘ul bo‘lgan g‘oyat muhim boshlang‘ich guruhdir. Oila erkaklar va ayollarning to‘la teng huquqligi, oila uchun bab-baravar javobgarligi asosida ko‘riladi.

Oila va oilaviy tarbiya muammolari ichida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid bilim berish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Oilalarni pedagogik yutuqlari bilan tanishtirish, ularning mustahkamligini ta‘minlash vositalaridan biridir. Ikkinchi tomondan esa, bu o‘z navbatida, bolalarning tarbiyasida tegishli shakl va metodlarni takomillashtirish yo‘llaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham ota-onalarni, oilalarni tarbiyaga oid bilimlar, tarbiya metodlari bilan qurollantirish nihoyatda zarur. Gap shundaki, jamiyatimizdagi har bir to‘laqonli shaxs bolalarning tarbiyachisi bo‘lishi, yangi insonni har tomonlama kamol toptiruvchi barcha holatlarda, shart-sharoitlarda ishtirok etish lozim.

O‘smirlik davri insonni bolalikdan - yoshlikka o‘tuvchi va o‘z navbatida boshqa davrlardan o‘zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davr taxminan bolalarning 5-8-sinflarda o‘qish paytlariga to‘g‘ri keladi va 11-

12 yoshdan 14- 15 yoshgacha bo‘lgan davr oralig‘ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. O‘smirlik davri ayrim maxsus psixologik adabiyotlarda «o‘tish davri», «og‘ir davr», «inqiroz davri» kabi nomlar bilan ham ataladi. Bu davrning «og‘irligi», «keskinligi», «murakkabligi» nimalar bilan asoslanadi?

O‘smirlik davrining og‘ir, murakkab davr ekanligi ko‘plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog‘liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o‘zgaradi. Bu davrda o‘smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan turli xil an’analar kuzatiladi. Bu davrga kelib bola endi “bola”emas va shu bilan birga hali «katta» ham emas. Uning o‘z-o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan bo‘lgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kashf etib boradi. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo‘nalganligi qaytadan shakllanadi, o‘zo‘zini anglashi, baholashi, qadriyatlarini o‘zgaradi. Uning uchun o‘z «men»i va shu «men»ning ahamiyati ortadi. Ya’ni unda egoizm holati kuzatiladi. Egoizm – sotsiotsentriзм (xudbin yoki sahovatlilik);

O‘zini yaxshi ko‘rish - o‘ziga ishonch. Bu tendensiya - o‘ziga ishonch, mustaqillik, ishchanlik, yuqori ko‘rsatkichi esa egoistlikni ifodalaydi

Giperproteksiya – ota-onalarning farzandlariga nisbatan haddan ziyod e’tibori bo‘lib, bu ularning bola tarbiyasi uchun kuch, vaqt va e’tiborni ayamasliklarida namoyon bo‘ladi. Ota-ona bu ishni hayot tarziga aylantiradi, ya’ni ona uchun ham, ota uchun ham bola tarbiyasi hayotining mazmun-muddaosiga aylanadi.

Giperproteksiya – ota-ona tomonidan bolaning barcha istak, tilak va ehtiyojlarini ko‘rko‘rona, tanqid va mulohazasiz qondirishga intilish; bolani har qanday qiyinchiliklar va to‘siqlardan himoya qilish, uning barcha istaklarini joyida bajo keltirish, erkalatish, oddiy yutuqlaridan quvonish, xatolarini sezmaslikka qaratilgan harakatlar. Bolasi uchun

“jonini jabborga beruvchilar” odatda o‘zlari bilmagan holda farzandlariga yomonlik qilayotganliklarini sezmaydilar, natijada bola kelajakda ishga toqati yo‘q, ko‘pchilikning ichida o‘zini tuta olmaydigan, hayotning past-balandliklarida o‘zini nochor his etadigan, tantiq, erka bo‘lib qoladi.

Ayniqsa, bola o‘smirlik yoshiga etganda, erka, tantiq bo‘lgani uchun do‘stlari va tengqurlari davrasida ham hamma aytganlari bo‘lishini istaydigan, liderlikka intiluvchanligini namoyon etgisi keladi, lekin ikkinchi tomondan, aslida unda bunday sifatlar bo‘lmaydi.

Gap shundaki, bunday holatlarda ota-ona zurriyodi timsolida ilgari o‘z hayot tajribasida erisholmagan armonlarini ro‘yobga chiqargisi keladi, ularning tarbiya uslublari aynan shunga qaratilgan bo‘ladi, lekin bola ko‘p jihatdan nochor ekanligini keyinchalik ijtimoiy muhitning turli vaziyatlariga tushganida his eta boshlaydi.

Bola o‘smirlik davriga qadam bosganda, u ota-onasidan mustaqillikni, hadeb ta’qib qilavermaslikni da’vo qila boshlaydi. Ota-onaning farzand oldidagi obro‘si, kerakligi darajasi pastlay boshlaydi. Bu davrga kelib ota ham, ona ham o‘zining farzandiga nisbatan munosabatlarini o‘zgartirishga majbur bo‘ladi, chunki bolada yangicha talab va istaklar, yangicha fikrlash, urf-odatlar, musiqaga havas, turli xil guruhlar bilan muloqotda bo‘lishga intilishlar paydo bo‘ladi. Bu davr ota-onaning bolasida paydo bo‘layotgan o‘zgarishlarga, yoshga oid yangiliklarga qanchalik fahm va farosat bilan, sabr-qanoat bilan turib berishlarini sinovdan o‘tkazadi. Sinovdan yaxshi o‘tgan ota-onaning bolasi keyingi bosqichga eson-omon yaxshilik bilan, ochiq ziddiyatlarsiz o‘tib oladi, aks holda o‘smirlik davrining o‘ziga xos ziddiyatlari girdobida ota-ona – bola munosabatlari jiddiy yomonlashadi, ayrim bolalar uydan ketib qolish holatlarigacha boradi. O‘zbekistonda muayyan ijtimoiy-psixologik muammo tadqiq etilganda, gender tafovutlarga e’tibor berish tobora an’anaga aylanib bormoqda. Lekin alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda psixologlardan tashqari, faylasuflar, sotsiologlar, tarixchilar, siyosatshunoslar, huquqshunoslar ham Zamonaviy psixologik tadqiqotlar tendensiyalari Buxoro 2024, 20-aprel 120 bu muammoni chetlab o‘tmaganlar. Jamiyat va oila ijtimoiy-iqtisodiy

taraqqiyotida xotin-qizlarning o‘rni va roliga bag‘ishlangan qator anjumanlar, monografik tadqiqotlar, dissertatsiyalar aynan shu muammoga bag‘ishlangandir. Masalan, yosh tadqiqotchi O.Abduvattorova (2007)ning dissertatsion izlanishi bu borada alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda o‘smir yoshli o‘g‘il va qiz bolalardagi gender tasavvurlarga bog‘liq jinsiy identifikatsiyani aniqlash va bunda oila muhitining rolini asoslash uchun ijtimoiy psixologiyada qo‘llanilgan qator ishonchli metodikalardan foydalanilgan va empirik izlanish ham ota-onalar, hamda ularning o‘smir yoshli farzandlari o‘rtasida o‘tkazgan.

O‘smirlik davri bolalikdan katta yoshga o‘tish davri bo‘lib, shaxs rivojlanishning intensiv davri hisoblanadi. Oilada o‘smir yoshidagi farzandga bolalikdan beriladigan tarbiya sharoitlari, tarbiya uslublari sog‘lom psixologik muhitga asoslanishi lozim. Bolalarga nisbatan zulm, zo‘ravonlik, qo‘rqitish, moddiy va ma‘naviy yetishmovchilik o‘zini past baholash hissiyotlarini mustahkamlaydi hamda norozilik munosabatlarini shakllantiradi. Shuningdek, egoistlik, qaysarlik, tajanglik, tajovuzkorlik, o‘z hissiyotlariga o‘ta beriluvchanlik, xususiyatlarining qaror topishiga olib kelishi mumkin. Ota-onalar o‘rtasidagi nizolar ham o‘smirda ruhiy kechinmalar keltirib chiqaradi. Agar ota-onalar o‘z bolalarida faqat zaif jihatlarni ko‘rsalar va doimiy ravishda bunga shama qilsalar, bu zaifliklar mustahkamlanib borib, shaxs xarakteriga yetakchi bo‘lib qolishi mumkin. O‘qituvchilar tomonidan hurmatsizlik, adolatsizliklar ham o‘z-o‘zini past baholashga olib kelib, kattalarga nisbatan ishonchning pasayishiga turtki bo‘ladi. O‘smirlik yoshi odamning shaxs sifatida kamol topishida yuksak darajadagi murakkablik va qarama-qarshilikka boy, ota-ona, tarbiyachi va pedagoglardan qattiq mashaqqat, tinimsiz mehnat talab etadigan davr. Shuning uchun oilada farzand egoistligi bilan emas balki, jo‘shqin enegiya, bilishga chanqoqlik, haqiqatni izlashga intiluvchanligi bilan yanada go‘zaldir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlik yoshidagi egoizm tabiiy psixologik jarayon bo‘lishi mumkin, biroq uni to‘g‘ri tarbiya va psixologik yondashuv orqali ijobiy tomonga yo‘naltirish mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh. Mirziyoyev Oila va xotin qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtishga oid qo‘shimcha chora -tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21- dekabrda PF-208-son
2. Shoumarov G‘. B, Shoumarov Sh. B, “Muhabbat va oila” T.:ibin Sino 1994. 120- bet.
3. O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari” (Respublika ilmiy amaliy anjuman ma’ruzalarining qisqacha bayoni) T.: 1993.
4. Д.Фонтенел «Пролемы переходного возраста».
5. (пер.санел – М. РОСМЭН, 1998 Подростковый конфликт) С.Е.Кожарская. Минск: Красико-Принт,2006.
6. (пер.санел – М. РОСМЭН, 1998 Подростковый конфликт) С.Е.Кожарская. Минск: Красико-Принт,2006.